



SOCIAL-PHILOSOPHICAL MODELS OF DEVELOPING YOUTH INFORMATION CULTURE

S. X. Qudratov

ISFT (International School of Finance Technology and Science) Institute

1st year independent researcher

e-mail: qudratovsiroj@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: information environment, youth information culture, the concept of “information availability”, “information aesthetics”, the theory of “network society”, “liquid modernity”.

Received: 04.03.26

Accepted: 05.03.26

Published: 06.03.26

Abstract: This article is devoted to the analysis of socio-philosophical models of the development of youth information culture. It reveals the impact of information on the consciousness of the individual, the system of values, and social behavior in the conditions of globalization and the digital society. Normative, communicative, and axiological models of the formation of information culture are considered on the basis of philosophical approaches. The study substantiates the role of the concepts of critical thinking, information responsibility, and spiritual immunity in the maturation of youth.

YOSHLAR AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MODELLARI

S. X. Qudratov

ISFT (international school of finance technology and science) instituti

1-bosqich mustaqil izlanuvchisi

e-mail: qudratovsiroj@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: axborot muhiti, yoshlar axborot madaniyati, “axborot mavjudligi” konsepsiyasi, “axborot estetikasi”, “tarmoq jamiyati” nazariyasi, “suyuqlashgan modernlik”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy modellari tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda globallashtirish va raqamli jamiyat sharoitida axborotning shaxs ongiga, qadriyatlar tizimiga va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri ochib berilgan. Axborot madaniyatini

shakllantirishning normativ, kommunikativ va aksiologik modellari falsafiy yondashuvlar asosida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda tanqidiy fikrlash, axborot mas'uliyati va ma'naviy immunitet tushunchalarining yoshlar kamolotidagi o'rni asoslab berilgan.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖНОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ

С. Х. Кудратов

(international school of finance technology and science) (ISFT)

Независимый исследователь, 1-й год обучения

e-mail: qudratovsiroj@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: информационная среда, молодежная информационная культура, понятие «доступность информации», «информационная эстетика», теория «сетевого общества», «жидкая современность».

Аннотация: Данная статья посвящена анализу социально-философских моделей развития молодежной информационной культуры. В ней раскрывается влияние информации на сознание личности, систему ценностей и социальное поведение в условиях глобализации и цифрового общества. Нормативные, коммуникативные и аксиологические модели формирования информационной культуры рассматриваются на основе философских подходов. В исследовании обосновывается роль понятий критического мышления, информационной ответственности и духовной неприкосновенности в созревании молодежи.

Kirish. Yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy modeli, avvalo, inson va axborot o'rtasidagi o'zaro munosabatni chuqur falsafiy tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu modelning mohiyatida insonning axborot muhitidagi mavjudlik shakllari, ularning ijtimoiy mazmuni va ma'naviy asoslari yotadi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan bu jarayon insonning "axborot mavjudligi" konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda inson o'zini faqat bilish subyekti emas, balki axborot oqimlari ichida faol mavjudlik shakli sifatida namoyon etadi. Shu bois, yoshlar axborot madaniyatining ijtimoiy-falsafiy modeli insonni axborot muhitida faqat foydalanuvchi emas, balki ma'naviy mezonlar asosida axborot yaratish, uni baholash va ijtimoiy muvozanatni saqlashga qodir ongli subyekt sifatida talqin etadi. Bu modelda axborot madaniyatining gnoseologik jihati - bilimni qayta ishlab chiqish, aksiologik jihati esa -

qadriyatlarni axborot orqali ifodalash va himoya qilish, ijtimoiy jihati esa - axborot muhitida shaxsning mas'uliyatli faoliyatini ta'minlashdan iboratdir.

Umuman olganda, yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy modellari va istiqbollari insonning axborot olamidagi mohiyatini, uning ma'naviy, kognitiv va ijtimoiy o'lchamlarini bir butun sifatida tahlil etishni talab qiladi. Bunday yondashuv axborotlashgan jamiyatda ma'naviy yuksaklik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirishga qaratilgan yangi falsafiy paradigmani shakllantiradi. Shunday qilib, ushbu bobning tahlil obyekti sifatida inson - axborot - jamiyat munosabatlari tizimi markazga qo'yilib, yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirish jarayoni jamiyatning ma'naviy poydevori va ijtimoiy barqarorligining kafolati sifatida talqin etiladi.

Adabiyotlar sharhi. Xorijiy tadqiqotlarda "axborot madaniyati" konsepsiyasi asosan postindustrial jamiyat nazariyalari doirasida shakllangan. D. Bell va E. Toffler axborot resurslarini jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida talqin etib, axborot oqimlari inson tafakkuri va ijtimoiy ongini tubdan o'zgartiruvchi kuch ekanligini ta'kidlaganlar [Bell D. 1973. – P. 112-116]. M. Kastels "tarmoq jamiyati" nazariyasida axborot makonini shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi va madaniy yo'nalishlarini belgilovchi kommunikativ tizim sifatida tahlil qiladi [Castells M. 2010. – P. 57–59.]. G. Poliakova esa axborot madaniyatini insoniyat tarixidagi ijtimoiy va madaniy transformatsiyalar natijasi sifatida baholab, uni insonning axborot bilan muomala qilish qobiliyati, tafakkur madaniyati va axloqiy mas'uliyatining uyg'un ifodasi sifatida talqin etadi [Полякова Г. 2013. – С. 84–86.]. S. I. Nikitina tadqiqotlarida axborot madaniyati insonning axborot bilan ishlash ko'nikmalari bilan bir qatorda, uning ma'naviy qadriyatlarini ham qamrab oluvchi ko'p darajali tizim sifatida tahlil qilinadi. Shunga o'xshash tarzda, M. Antonova axborot madaniyatini insonning kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri va axborotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini o'zida mujassam etuvchi madaniy hodisa sifatida baholaydi [Антонова М. А. 2014. – С. 31–33].

MDH mamlakatlari faylasuflari, xususan A. Ursul, N. Moiseev, E. Kochetov va R. Abdeyev axborotlashgan jamiyatni texnogen sivilizatsiyaning yangi bosqichi sifatida talqin qilib, ijtimoiy muhitni inson tafakkurining aksiologik o'zgarishlar maydoni deb izohlaydilar [Урсул А. Д. 1990. – Т. 45–46]. E. P. Semenyuk axborot madaniyatini insoniyat madaniyatining informatsion komponenti sifatida talqin etadi [Семенюк Е. П. 1994. – Т. 6.]. Unga ko'ra, axborot madaniyati shunchaki texnik savodxonlik emas, balki axborot jarayonlarining inson ma'naviy olamiga singish darajasidir.

Muhokama va natijalar. Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning axborot bilan ishlash madaniyati shaxs kamoloti va ijtimoiy barqarorlikning muhim omiliga aylanmoqda.

Axborot madaniyati nafaqat texnologik savodxonlik, balki falsafiy tafakkur, axloqiy mas'uliyat va tanqidiy ong birligini talab etadi.

1. Normativ-aksiologik model. Mazkur model axborot madaniyatini ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va axloqiy tamoyillar asosida shakllantirishga yo'naltirilgan. Unda haqiqat, adolat, mas'uliyat va erkinlik tushunchalari markaziy o'rin egallaydi. Yoshlarning axborotdan foydalanishida ma'naviy mezonlarni ustuvor qo'yish asoslanadi.

2. Kommunikativ model. Bu model J.Habermasning kommunikativ harakat nazariyasiga tayangan holda, axborot almashinuvida muloqot madaniyati va o'zaro tushunishni asosiy omil sifatida talqin qiladi. Yoshlar axborot makonida subyekt sifatida faol ishtirok etib, ijtimoiy fikr shakllanishiga mas'ul bo'lib boradi.

3. Tanqidiy-refleksiv model. Model yoshlarning axborotni tahlil qilish, baholash va qayta talqin etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. U soxta axborot, manipulyatsiya va mafkuraviy bosimlarga qarshi ma'naviy-intellektual immunitetni shakllantiradi.

4. Ijtimoiy-amaliy model. Mazkur model axborot madaniyatini kundalik ijtimoiy faoliyat bilan bog'laydi. Unda ta'lim, OAV, raqamli platformalar va ijtimoiy institutlarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar axborot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy modellari shaxs erkinligi va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligini ta'minlaydi. Ushbu modellar yosh avlodning ongli axborot tanlovi, mustaqil tafakkuri va barqaror ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborotlashgan jamiyatning globallashuv jarayonida axborot madaniyatining mohiyati va mazmunini falsafiy idrok etish, ayniqsa yoshlar tafakkuri va dunyoqarashi shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki yoshlar axborot muhitining asosiy subyekt sifatida yangi ijtimoiy voqelikning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Bu jarayon ijtimoiy-falsafiy yondashuvda inson tafakkuri, madaniy identiteti va axloqiy qadriyatlari bilan uzviy aloqador bo'lib, axborotlashgan jamiyatda ma'naviy o'zgarishlarning markazida turadi. G.Ravshanova ta'kidlaganidek, "ta'limning axborotlashgan jamiyat funksional rivojlanishidagi o'rni inson dunyoni anglashi, ijtimoiy tafakkurining shakllanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayonda axborot, bilim va ma'naviyatning o'zaro integratsiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi" [Ravshanova G.M. 2023. – B. 7-9.]. Muallifning bu fikrida ijtimoiy-falsafiy ahamiyatli jihat - axborotni shunchaki texnik hodisa emas, balki epistemologik asosga ega bo'lgan ijtimoiy fenomen sifatida talqin qilishdir. Biroq Ravshanovanning konsepsiyasida axborotning ijtimoiy madaniyat bilan dialektik o'zaro ta'siri yetarlicha chuqurlashmagan, chunki axborot madaniyatining yoshlar tafakkurida transformatsiyasi nafaqat bilim, balki ijtimoiy tajribaning semiotik shaklida ham aks etadi. Aynan shu nuqtada G.G'affarovanning "muraqqab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-

metodologik asoslari” haqidagi tadqiqoti axborot jarayonlarini tizimli va ontologik yondashuv orqali tahlil qiladi. U “axborot inson tafakkurining atributiv shakli bo‘lib, u borliqdagi tizimli harakatlarning ichki uyg‘unligini ifodalaydi, shu bois jamiyatni axborotlashtirish bu tizimning o‘zini anglashidir” [G‘affarova G‘.G‘. 2019. – B. 12-14.] deya yozadi. Bu yondashuvning metodologik kuchi - axborot madaniyatini insonning dunyoni bilish faoliyatidagi o‘zlikni anglash vositasi sifatida izohlashdir. Ammo tanqidiy nuqtai nazardan aytganda, G‘affarova axborot madaniyatini ijtimoiy ong shakli sifatida emas, balki bilishning sof texnologik paradigmasi sifatida talqin qiladi. Bu esa ijtimoiy-falsafiy kontekstda inson va madaniyat o‘rtasidagi aksiologik bog‘liqlikni ma’lum darajada cheklaydi.

Axborot jarayonlarining ijtimoiy-axloqiy jihatlarini yoritishda A. Lutfullayevning “Yagona axborot maydonining kengayishi sharoitida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish” nomli tadqiqoti alohida o‘rin tutadi. U “yagona axborot makonida axborot oqimlari shaxs dunyoqarashini shakllantiruvchi omilga aylanmoqda, shu bois ma’naviy immunitetni shakllantirish yoshlar tarbiyasining falsafiy mohiyatini belgilaydi” degan fikrni ilgari suradi [Lutfullayev A.A. 2023. – B. 7-8.]. Lutfullayevning bu g‘oyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan yoshlar axborot madaniyatini mafkuraviy xavfsizlik tizimi bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, bu yondashuvning chegarasi shundaki, u madaniyatni himoya mexanizmi sifatida ko‘radi, biroq madaniyatning o‘zi - ijodiy o‘zgarish va yangilanish manbai sifatida kam yoritilgan. I. Suvanov “Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning innovatsion texnologiyalari” asarida axborot jarayonlarini “ijtimoiy-falsafiy maydondagi mafkuraviy kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatli dialektika” sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, “axborot va mafkura o‘rtasidagi ziddiyatni yengishning yagona yo‘li – bu axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishdir” [Lutfullayev A.A. 2023. – B. 7-8.]. Bu fikrda axborot madaniyati insonning tanlov va mas’uliyat konsepsiyasi bilan bog‘langan, ya’ni axborotning etik qirralari ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashadi. Suvanovning g‘oyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan progressivdir, ammo uning “texnologik model”ga tayangan konsepsiyasi axborot jarayonlarining ontologik mohiyatini - inson ruhiy olamining transformatsiyasini yetarli darajada ochmaydi.

Yoshlar axborot madaniyatini shakllantirish muammosiga falsafiy yondashuvni J. Jurakulov yanada insonparvarlik nuqtai nazaridan ko‘radi. U “axborotlashgan jamiyatda inson ma’naviy borlig‘i ijtimoiy-madaniy transformatsiyaga yuz tutmoqda, bu esa shaxsning axloqiy o‘zligini mustahkamlovchi yangi ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirishni talab qiladi” [Jurakulov J.K. 2023. – B. 9-10.] deya ta’kidlaydi. Jurakulovning konsepsiyasi yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishni “ma’naviy borliqning qayta modellashtirilishi” deb talqin etadi, bu esa falsafaning klassik kategoriyalarini (borliq, ong, madaniyat) yangi epistemik maydonga olib

kiradi. Shu bilan birga, uning qarashlarida axborot madaniyatining normativ mexanizmlari (me'yor, mas'uliyat, axloqiy tahlil) yetarlicha tizimlashtirilmagan. Axloqiy qadriyatlar va axborot madaniyati o'rtasidagi uyg'unlikni A. Nasimov chuqur falsafiy asosda tadqiq etib, "axborotlashgan jamiyatda axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi inson tafakkurida erkinlik va mas'uliyat muvozanatini belgilaydi" [Nasimov A.A. 2025. – B. 6–8.] deb yozadi. Nasimovning tahlilida yoshlar axborot madaniyatini shakllantirish axloqiy ongini mustahkamlash bilan bevosita bog'langan. Uning "axborot estetikasi" haqidagi g'oyasi ayniqsa dolzarb - u axborot oqimining go'zallik, uyg'unlik va ma'naviylik mezonlariga mos bo'lishini ijtimoiy barqarorlik sharti sifatida talqin qiladi. Tanqidiy nuqtai nazardan esa, bu yondashuv ijtimoiy strukturaviy sharoitlarni yetarli darajada hisobga olmaydi, chunki axborot iste'moli madaniyati ko'proq iqtisodiy va siyosiy mexanizmlarga ham tayanadi.

Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish bosqichida yoshlar axborot madaniyatini shakllantirish masalasi ijtimoiy falsafaning ontologik, gnoseologik va aksiologik muammolari bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Axborot bu jarayonda oddiy kommunikativ vosita sifatida emas, balki ijtimoiy ongini yo'naltiruvchi, me'yorlashtiruvchi va ijtimoiy tajribani qayta ishlab chiqaruvchi strukturaviy omil sifatida maydonga chiqadi. Shu sababli yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy modeli shaxsning faqat moslashuvi emas, balki uning ijtimoiy subyektivligi, tanqidiy refleksiya va ma'naviy mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan murakkab tizim sifatida tahlil qilinishi zarur. J.Habermas kommunikativ harakat nazariyasida axborot va muloqot munosabatlarini tahlil qilib, "ratsional muloqot ijtimoiy kelishuv va legitimlikning asosiy sharti" ekanligini ta'kidlaydi [Habermas J. 1995. – P. 286-288.]. Ushbu yondashuv yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy modelida dialogik va konsensusga yo'naltirilgan axborot muhitini markaziy o'ringa qo'yadi. Biroq tanqidiy jihatdan qaralganda, Habermas modeli real axborot makonidagi asimmetrik kuch munosabatlari va raqamli platformalarning tijoriy manfaatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Z.Bauman axborotlashgan jamiyatni "suyuqlashgan modernlik" doirasida tahlil qilib, "axborot oqimlarining beqarorligi shaxs identitetini ham suyuqlashtiradi" deb qayd etadi. Ushbu fikr yoshlar axborot madaniyatini shakllantirish modelida barqaror identitet va ma'naviy tayanch muammosini dolzarb qiladi.

M. Fuko bilim va hokimiyat munosabatlarini tahlil qilib, "har bir bilim shakli muayyan hokimiyat mexanizmlarini ishlab chiqaradi" [Foucault M. 1996. – P. 27-29.] deya ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy modelida axborotni neytral hodisa emas, balki ijtimoiy nazorat va normallashtirish vositasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tanqidiy nuqtai nazardan, Fuko konsepsiyasi shaxsning

ijodiy qarshilik va reflektiv erkinlik imkoniyatlarini ikkilamchi darajaga tushirib qo'yadi. P.Bourdieu axborot va madaniy kapital munosabatlarini tahlil qilib, "madaniy resurslarga egalik ijtimoiy tengsizlikni qayta ishlab chiqaradi" degan xulosaga keladi. Bu fikr yoshlar axborot madaniyatini shakllantirish modelida raqamli tafovut va axborotga kirishdagi notenglik muammosini asoslaydi.

Xulosa. Yuqoridagi turli nazariy pozitsiyalarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy modeli regulativ, interpretativ va aksiologik o'lchamlarning birligiga asoslanadi. Bu modelda axborot bir vaqtning o'zida noaniqlikni kamaytiruvchi mexanizm, ramziy ma'no ishlab chiqaruvchi muhit va ma'naviy tanlovni talab etuvchi hodisa sifatida talqin qilinadi. Yoshlar esa axborot makonida faol talqin qiluvchi, tanqidiy baholovchi va mas'uliyatli subyekt sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy modeli axborotning miqdoriy ko'payishini emas, balki ma'no, talqin va mas'uliyatning sifat jihatidan uyg'unlashuvini ta'minlovchi murakkab ijtimoiy tizimdir. Bu esa mazkur masalani ijtimoiy falsafa doirasida uzluksiz, chuqur va ko'p darajali tahlil qilish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ravshanova G.M. Ta'limning axborotlashgan jamiyat funksional rivojlanishidagi o'rni (ijtimoiy-falsafiy tahlil). – Buxoro: BuxDU, 2023. – B. 7-9.
2. G'affarova G'.G'. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasining falsafiy-metodologik asoslari. – Toshkent: O'zMU, 2019. – B. 12-14.
3. Lutfullayev A.A. Yagona axborot maydonining kengayishi sharoitida ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish. – Qarshi: QIATI, 2023. – B. 7-8.
4. Suvanov I.A. Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning innovatsion texnologiyalari. – Toshkent: Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, 2024. – B. 10-11.
5. Jurakulov J.K. Axborotlashgan jamiyatda inson ma'naviy borlig'ining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi. – Toshkent: Respublika Ma'naviyat markazi, 2023. – B. 9-10.
6. Nasimov A.A. Axborotlashgan jamiyatda axloqiy qadriyatlar transformatsiyasi. – Samarqand: SamDChTI, 2025. – B. 6–8.
7. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. – New York: Basic Books, 1973. – P. 112-116.
8. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – P. 57–59.

9. Полякова Г. Феномен информационной культуры в современном обществе. – Власть, №10. – Москва, 2013. – С. 84–86.
10. Антонова М. А. Различные подходы к пониманию «Информационная культура». – Тамбов: Грамота, №3 (82), 2014. – С. 31–33.
11. Урсул А. Д. Информатизация общества: Введение в социальную информатику. – Москва: Наука, 1990. – Т. 45–46.
12. Семенюк Е. П. Развитие информационного пространства и прогресс общества. – НТИ, Сер.1, №1. – Москва, 1994. – Т. 6.
13. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. – Boston: Beacon Press, 1995. – P. 286-288.
14. Foucault M. Knowledge/Power. – New York: Pantheon Books, 1996. – P. 27-29.